

## TOG‘AY MUROD QISSALARIDAGI METAFORA VA O‘XSHATISHLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

**Jo‘rayeva Gulhayo Xakim qizi**

NavDPI II bosqich doktoranti

[gjorayeva109@gmail.com](mailto:gjorayeva109@gmail.com)

***Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi komparativ troplar, xususan, metaforalarning lingvokulturologiyadagi ahamiyati, Tog‘ay Murod qissalaridagi o‘xshatish va metaforalarning lingvomadaniy jihatlari tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:** metafora, komparativ trop, lingvokulturema, mentalitet, o‘xshatish.*

***Abstract:** This thesis is devoted to the linguocultural study of some of the metaphors from the language units that reflect the culture in the stories by the Uzbek national writer, singer of values Togay Murad.*

### KIRISH

Xalqning tiynati va tabiatini, ruhiyati va mentalitetini tildan ayri holda tasavvur etib ham, tahlil etib ham bo‘lmaydi. Tildagi birliklarda, ayniqsa, frazeologizmlar, o‘xshatish va metaforalarda xalqning mental o‘ziga xosligi muayyan tarzda in’ikosini topadi. Negaki, bunday obrazli ifodalar xalqning teran dunyoqarashi, obrazli nigohi, idroki va tafakkuri mahsuli o‘laroq dunyoga keladi.

### MATERIAL VA METODLAR

O‘xshatish, yuqorida aytganimizdek, juda qadim zamondan xalq og‘zaki ijodiyotida, mumtoz adabiyotda ishlatilib kelingan. Shuning uchunki, poetikaga bag‘ishlangan eng birinchi asarlarda ham tashbeh, uning tahlili masalasiga alohida o‘rin beriladi. O‘xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdir.

O'xshatish eng qadimgi tasviriy vositalardan bo'lishi bilan birga, eng sodda va ko'p ishlatiladigan, tez-tez qo'llaniladigan sintaktik hodisa hisoblanadi.

Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o'xshatishla poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsuridan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt; 2) unga o'xshash bo'lgan narsa yoki obyekt; 3) o'xshatish belgisi yoki asosi; 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi<sup>63</sup>. O'zbek tilida ham, boshqa tillarda bo'lgani kabi, o'xshatishlar to'rt unsurdan tashkil topadi va biz ularni o'xshatish subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakily ko'rsatkichi, deb nomlaymiz.

Aytish mumkinki, insonning dunyoni bilishida o'xshatish-qiyoslash benihoya katta o'rin tutadi. Ikki va undan ortiq predmet yoki tushunchani o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri. Qiyoslash - bilingan narsa-xususiyat vositasida bilinmagan narsa-xususiyatni osonlik bilan bilish imkoniyatini beradi. Masalan, gulning chiroyliligi bilingan xususiyat bo'lsa, endi boshqa narsalarning shu xususiyati gulga qiyoslab (guldek chiroyli, go'zallikda gul kabi) osonlik bilan idrok etilaverishi mumkin.

## NATIJALAR

O'xshatish va metafora kabi hodisalar tilshunoslikda **komparativ troplar** deb ham yuritiladi<sup>64</sup>. Bunga sabab, albatta, o'xshatishning asosida ham, metaforaning asosida ham o'xshatish-qiyoslash hodisasi yotganidir. Aslida metafora ham o'xshatish, faqat u qisqargan, yashirin o'xshatishdir. Masalan, gulday qiz – o'xshatish, gul – metafora.

Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" asarida ham o'xshatishlar orqali milliy mentalitetimizga xos elementlar ko'rinadi. Asarda og'ir tabiatli inson saman

---

<sup>63</sup> Bu haqida qarang. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. T.: "Ma'naviyat", 2013. 5-bet.

<sup>64</sup> Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. T.: "Ma'naviyat", 2013. 8-bet.

otga o'xshatiladi<sup>65</sup>. O'zbek inonchlariga ko'ra, o'limi yaqinlashgan yoki o'lim xavfi tug'ilgan kishining tushiga ot kirib, o'limdan darak beradi. Bulardan tashqari o'zbek madaniyatida yangi uyga ko'chib kirishda hovli ostonasi, darvozasiga otning taqasi qoqiladi. Bu bilan xonadon turmushi ot taqasiday mustahkam va xotirjam, mol-holga boy-badavlat bo'lishi niyat qilinadi.

Islomda ot – baxt va boylik; buddizmda narsalarning yashirin tabiati; nasroniylikda Quyosh, jasorat, olijanoblik; kelt mifologiyasida ot-xudolar obrazi; xitoy mifologiyasida samo, olov, janub, shuningdek, muchallardan biri; yapon mifologiyasida oq ot – mehr, rahm-shavqat ma'budasi, qora ot – yomg'ir xudosi; Sibir va Oltoy shomonligida qurbonlik hayvoni sifatida talqin qilinadi.

O'zbek tilidagi qip-qizil anorday yuzli o'xshatishi boshqa tillarda uchramasligi mumkin. "Qip-qizil anorday"<sup>66</sup> o'xshatish etalonida o'zbekcha milliy-madaniy qarash, tasavvur yorqin aks etgan. Bu yerda qizil rangi ham o'ziga xos ma'no tashiydi. Xitoyda qizil rang farovonlik, to'kin-sochinlik va baxtli hayotni timsoli sifatida qabul qilinadi, shuningdek, qizil darvozalar oliy tabaqadagi zodagonlar, boylar yashaydigan uylarni ifodalagan. Uzoq Sharq mamlakatlarida qizil rang kelin va kuyov atrofidagi barcha buyumlarda o'z aksini topgan bo'ladi. Koreya va Mo'g'ulistonda yangi yil kiyimlariga tumor sifatida qizil doirachalar tikib qo'yiladi. Ayrim lingvomadaniyatlarda qizil rang jug'rofiy belgi sifatida qo'llaniladi. Masalan, Mayya qabilasida qizil rang sharqni, Qadimgi Meksikaning tog'li xalqlarida janubni ifodalagan.

Aytilganlar bilan birga, qizil rang turli madaniyatlarda qondan oqadigan hayot, tiriklik timsoli bo'lib ham keladi. Ba'zan tahdid, urush, kuch-qudrat, jasorat, haqiqat ramzini ifodalaydi.

O'zbek lingvomadaniyatida go'zal ayol yuzi oyga o'xshatiladi. Tadqiq etilayotgan asarda ham bu holatni ko'rish mumkin. Ammo rus lingvomadaniyatida oy obrazi ko'proq g'amgin, ma'yus, sovuq manzara bilan bog'lanadi, shu holat rus mental tasavvurotida an'anaga kirgan. Xitoy va koreyslarda esa oy etaloni faqat

<sup>65</sup> Qarang: T. Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. 10-bet.

<sup>66</sup> Tog'ay Murod. O'sha asar, 181-bet.

musbat o'lehovlarda talqin etiladi, go'zal ayolning oyga o'xshatilishi juda keng tarqalgan, xuddi o'zbeklardagi kabi oy obrazi go'zallik, yorqinlik, yoqimlilik kabi sifatlarni tamsil etishga xizmat qiladi. Yoki xitoy va koreyslarda ayol yuzining o'rikka, majnuntol novdasiga o'xshatilishi, go'zal yuz aylanasi (oval shakli)ning oshqovoqning urug'idan iborat etalon vositasida ta'kidlanishi mavjudki, ular o'zbek, rus va boshqa lisoniy mental an'analarga begonadir. Demak, turli tillarda o'xshatish etalonlarining tanlanishida ham farqli milliy-etnik idrok hal qiluvchi o'rin tutadi<sup>67</sup>.

## MUHOKAMA

Fanda yangi bilimni topish va aniqlashtirishning ming yillardan beri ma'lum bo'lgan eng muhim usullaridan biri analogiya bo'lib, u turli obyektlar belgilari, xususiyatlari yoki munosabatlarning o'xshashligiga asoslanadi, ana shu o'xshashlik asosida bir obyekt haqidagi ma'lumotlar ikkinchi obyektga ko'chiriladi. Bu kognitiv jarayon, shubhasiz, metafora jarayonining mohiyatini tashkil etadi.

Aristotelning fikricha, metafora ham o'xshatishdir, chunki ular o'rtasida arzimagan farqlar mavjud, xolos. Masalan, *u sherday tashlandi* ifodasida o'xshatish bor, agar ifoda *sher tashlandi* tarzida o'zgartirilsa, metafora yuzaga keladi<sup>68</sup>.

8. Metaforalar turli xalqlar madaniyatida turlicha ma'no tashiydi. Asarda it metaforasi o'zbek lingvomadaniyatiga xos haqorat ma'nosini ifodalaydi: ***“Men sega biror yomon gap gapirdimmi, it!! – deya shang‘illadi. – Ichim kuyganidan, ichim achiganidan gapiraman-da, it!! Peshonang nimaga bundayin sho‘r desam, gap bu yoqda ekan-da, it!!.”***<sup>69</sup>

Ruslarda *it* (salbiy hodisalar bilan bir qatorda) sodiqlik, vafodorlik, oddiqlikni assotsiatsiyalaydi. Jumladan, *sobachya vernost, sobachya predannost, sobachya jizn* kabi frazeologik birliklarda mazkur xususiyatlar o'z aksini topgan; beloruslarda *it* salbiy xususiyatlarni ifodalaydi: *ushissa u sabachuyu skuru* (“layoqatsiz, dangasa odamga aylanish”), *sobakam padshiti* (“yomon odam”); o'zbeklarda, qirg'izlarda va qator boshqa turkiy xalqlarda *it* haqoratni bildiradi.

<sup>67</sup> Bu haqida qarang: <sup>67</sup> Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. T.: “Ma'naviyat”, 2013. 15-bet.

<sup>68</sup> Аристотель. Риторика / Античные риторика. –М.: МГУ, 1978. –С. 134.

<sup>69</sup> T. Murod. O'sha asar, 111-bet.

## XULOSA

Xullas, tilshunos olim Nizomiddin Mahmudov buyuk nemis olimi Yakob Grimning “Xalq haqidagi saqlanib qoladigan eng jonli guvoh – bu uning suyagi, foydalangan ish qurollari yoki qabri emas, balki uning tilidir” degan fikrini shunday rivojlantirganda haq edi: “Xalq o‘z tili haqida uning ibtidosidan boshlab ma’lumotga ega bo‘lsa, bu tilning turfa tovlanishlari-yu, tarang va lo‘nda mantig‘ini chuqur his eta olsa, o‘zining uzoq va murakkab tarixini ham chuqur his eta oladi, tarixidan faxrlana oladi, o‘zinikidan boshqa tillarning ham muqaddasligiga, har jihatdan hurmatga loyiqligiga imon keltira oladi. Bu esa xalqning o‘zligini anglashi demakdir”<sup>70</sup>.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab ... // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5. – 10 bet.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. T.: “Ma’naviyat”, 2013.
3. Rahmatullayev Sh. Frazologik birliklarning asosiy ma’no turlari. – T.: Fan, 1955.
4. Tog‘ay Murod. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. –T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.
5. Худойбергано́ва Д. Матнинг антропоцентри́к тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2013.
6. Ziyouz.com
7. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. –T.: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.

---

<sup>70</sup> Mahmudov N. Til. T.: “Yozuvchi”, 1998. 3-bet.